



UDK: 811.11

Valida MADIYOROVA,
O'zbekiston Milliy universiteti, PhD
E-mail: validaravshan@gmail.com

UrDU dotsenti, PhD Q.Olloyorov taqrizi asosida

TARJIMADA GENDER XOSLANGAN BIRLIKLAR TASVIRI XUSUSIDA

Аннотация

Azaldan tarjimaning muqobilligi asl matn strukturasi va ma'nosining tarjimada to'liq aks etish darajasi bilan belgilanadi. Lekin jamiyatda shunday hodisalar, turli millat va madaniyatlarga xos bo'lgan jihatlar borki, ularni tarjimada boricha ochib berishga tarjimon ba'zida ikkilanadi, ba'zida qiynaladi. Ana shunday muammoli, ikki tarfli masalalardan biri bu tarjimada gender xoslangan madaniy tushunchalarning ifodalanishidir. Gender diskriminatsiyasi dunyoning deyarli barcha xalqlari va jamiyatlarida juda keng tarqalgan va o'mashganligi sababli, gender kategoriyasini tilda ongli yoki ongsiz ravishda stereotipik va kamsituvchi shakllarda qo'llash ko'p uchraydi va bu holat badiiy asarlardan ham o'rin olgan. Ushbu maqolada shu kabi hodisalarni tarjimada ifodalash masalasi tilga olinadi.

Kalit so'zlar: Genderizm, gender xoslangan birliklar, milliy-madaniy yondashuv, qiyosiy tahlil.

К ВОПРОСУ ОБ ОТОБРАЖЕНИИ ГЕНДЕРНО-СПЕЦИФИЧЕСКИХ ЕДИНИЦ В ПЕРЕВОДЕ

Аннотация

Альтернативность перевода определяется степенью полноты отражения структуры и смысла исходного текста в переводе. Однако в обществе существуют явления, при которых переводчик порой испытывает нерешительность, а порой и затруднение в полной мере раскрыть в переводе особенности разных народов и культур. Одним из таких проблемных, двусторонних вопросов является отражение гендерно-специфических культурных концептов в переводе. Поскольку гендерная дискриминация широко распространена и укоренилась практически во всех народах и обществах мира, часто встречается использование категории гендера в языке в стереотипных и дискриминационных формах, осознанное или неосознанное, и эта ситуация присутствует и в литературе. В данной статье рассматривается проблема отражения подобных явлений в переводе.

Ключевые слова: Гендеризм, гендерно-специфические единицы, национально-культурный подход, сопоставительный анализ.

ON THE DEPICTION OF GENDER-SPECIFIC UNITS IN TRANSLATION

Annotation

The alternative nature of translation is determined by the degree to which the structure and meaning of the original text are fully reflected in the translation. However, there are such phenomena in society that, the translator sometimes hesitates, sometimes finds it difficult to fully reveal the characteristic aspects of different nations and cultures in translation. One of such problematic, two-sided issues is the representation of gender-specific cultural concepts in translation. Since gender discrimination is very widespread and entrenched in almost all nations and societies of the world, the use of the gender category in language in stereotypical and discriminatory forms, consciously or unconsciously, is often found, and this situation is also present in literature. This article addresses the issue of representing such phenomena in translation.

Key words: Genderism, gender-specific units, national-cultural approach, comparative analysis.

Kirish. Azaldan tarjimaning muqobilligi asl matn strukturasi va ma'nosining tarjimada to'liq aks etish darajasi bilan belgilanadi. Lekin jamiyatda shunday hodisalar, turli millat va madaniyatlarga xos bo'lgan jihatlar borki, ularni tarjimada boricha ochib berishga tarjimon ba'zida ikkilanadi, ba'zida qiynaladi. Ana shunday muammoli, ikki tarfli masalalardan biri bu tarjimada gender xoslangan madaniy tushunchalarning ifodalanishidir. Chunki, tarjima va genderning o'zaro bog'liqligi shu darajada kuchli-ki, hatto asl matn muallifining, shuningdek, tarjimonning qaysi jins vakili ekanligi kabi tashqi omillar matnni tarjima qilish uslubi, sifatiga ta'sir qilishi bir qator tadqiqotlarda o'z aksini topgan. Ammo, yuqorida ta'kidlangan omillardan tashqari, asliyat matnida ifodalangan gender xoslangan tushunchalarni tarjima qilish bilan bog'liq muammo mavjudki, u hozirgi kungacha o'z yechimini topmagan [1]. Chunki, gender diskriminatsiyasi dunyoning deyarli barcha xalqlari va jamiyatlarida juda keng tarqalgan va o'mashganligi sababli, gender kategoriyasini tilda

ongli yoki ongsiz ravishda stereotipik va kamsituvchi shakllarda qo'llash ko'p uchraydi va bu holat badiiy asarlardan ham o'rin olgan. Zamonaviy til nuqtayi nazaridan olib qaraganda, gender xususiyatlarni ifodalovchi birliklarni tarjima qilishga qaratilgan ishlar talaygina, lekin gap asl matnning mohiyatini anglash arxazimlar tufayli ancha qiyinlashgan tarixiy asarlar matni tarjimalari haqida ketganda, bunday deya olmaymiz. Tarixiy asarlar tarjimasi tarjimon oldiga ham tarixiy tilni, ham undagi milliy-madaniy xoslangan tushunchalarni ifodalashni qo'ysa, gender xoslangan til birliklari keyingi muammo sifatida e'tibor talab qiladi. Chunki, tarixan ayollar va erkaklarga nisbatan ishlatilgan gender xoslangan konseptlar talqinini to'liq amalga oshirish va uni tarjimada ifodalash bir tarafdin qiyinchilik tug'dirsa, shunday tushunchalar borki, ularni tarjimada ifodalash kerakmi o'zi degan tabiiy savol tug'iladi. Buning ostida esa, gender diskriminatsion ruhdagi jumlar, jumladan, ayollar yoki erkaklarning kamsitilishi, ularning jamiyatdagi notengligining bo'rttirilishi, shuningdek,

erkaklarning dominant roliga urg'u berilishi kabi Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatiga singib ketgan omillar yotadi. Bu kabi hodisalarni tarjimada ifodalash masalasi jahon tarjimashunosligining hozirgacha bir to'xtamga kelinmagan azaliy mummosidir.

Adabiyotlar tahlili. Genderning lingvomadaniy aspektidagi tadqiqi binar yo'nalishda olib boriladi, ya'ni ham har ikkala jinsni ifodalovchi til birliklarining farqlariga, ham ularni ifodalashdagi milliy-madaniy o'ziga xosliklarga e'tibor beriladi. Mazkur sohada amalga oshirilgan ishlarning aksariyati feministik ruhdagi tadqiqotlar, shuningdek, maqol, ertak, idiomalar kabi til birliklarida gender xususiyatlarning reprezentatsiyasini tadqiq qilishga qaratilgan [2]. Mazkur ishlarda "gender xoslangan so'zlar", "jinsni ifodalovchi til birliklari", "gender konseptlar" [3], "gender xususiyatlar", "gender stereotiplar" [4], "gender indikatorlar" [5], "gender parametrlari" [6], "gendering violence" kabi terminlar ko'p holatlarda sinonim sifatida ishlatilgan. Ulardan farqli ravishda, biz mazkur ilmiy ishimizda "genderizm" terminini qo'llashni joiz deb topdik va ularni tarjimada ifodalash masalasini markaziy muammo sifatida belgiladik. Ushbu termin turli fan sohalarida turlicha talqin qilinadi, lekin makur tadqiqot ishida biz N. Muhaddam va A. Sharifmuhaddamlarning nuqtayi nazariga tayanib, genderizmlarni quyidagi shaklda izohlaymiz. "Genderism is a segregating ideology that unfairly divides society into two groups of "inferior" and "superior" merely based on one's sex" [7]. Adabiyotlarda genderizmlarning turli ta'riflariga duch kelamiz. Jumladan, E. Said va A. Arabmofradlar genderizmlarni quyidagicha ta'riflashadi: "a phenomenon that can be transferred alongside other matters as a drawback" and "gender-biased language and unequal treatment of genders" [8]. H. Bertensning ta'kidlashicha, genderizm feminism g'oyalari bilan bir qatorda siyosiy mafkuralar, ijtimoiy jamoalardagi dominantlik munosabatlariga bevosita ta'sir qiladi [9].

Feministik gender stereotiplari ham real-hayotiy faktlarga, ham to'qima g'oyalarga asoslangan salbiy va ijobiy

Tahlillar va muhokama.

1 jadval.

Ayollarni "yangilash, tashlab yuborish, sotish" genderizmlarining tarjimadagi reprezentatsiyasi

	Asliyat	Birinci tarjima	Ikkinchi tarjima
Yangilamoq	Mingboshining o'zi esa har sana bir evlanmoqdan, xotin yangilamoqdan bo'shalmaydur...	"But mingboshi is spending his life in prosperity and his wives are busy with having new dresses every week. Mingboshi is not against to have more wives upon his three wives..." (P.61)	Mingboshi could not free up any funding for the school, busy as he was acquiring new wives. (P.109)
Tashlab yubormoq	Chinakam, mingboshi yangi qayliqni olib, muni butunlay tashlab yubordi. Jabr, axir, yosh narsaga!	Tushirib qoldirilgan.	Mingboshi completely abandoned her once he took Zebi. (P. 205)
Sotmoq	Ota-onalari tomonidan qari chollarga sotilgan qizlar ozmidi?	Were there less girls who had been sold to old gentlemen by their parents?	Are the girls that are sold by their parents to old men few? (P.231)
	Zebi, Zebi, Zebona, Men ko'yingda devona. Seni sotdi o'z otang, Men bo'layin sadag'ang!	Zebi, Zebi, Zebona, I am mad man upon you. You were sold by father, I am your poor mother....	Zebi, Zebi, my Zebi I am te fool on your path. Your father sold you, Let me be your grave! (P.271)

Birinci jumla Akbarali mingboshining jadid maktabini yoytirgani tanqid ostiga olib yozilgan va "jadidlar tomonidan haftada ikki marta zo'rg'a nashrdan chiqadigan bir gazetda" dagi maqoladan olingan bo'lib, muallif "evlanmoq" arxaizmini keltiradi, uning hozirgi kundagi ekvivalenti "uylanmoq" bo'lib, muallif ushbu arxaizm bilan birga qo'shimcha izoh, ya'ni "xotin yangilamoq" birikmasini ham birga qo'llaydi. Bu esa, o'sha davrdagi ijtimoiy muhit natijasida, "evlanmoq"

xususiyatlarga ega bo'lishi tabiiy [4]. Ayol obrazining bu kabi turli reprezentatsiyasi milliy dunyoqarash, diniy madaniyat, etika (axloq), ijtimoiy asos, shuningdek, ayol obrazining ko'p qirraliligi, ayol tabiatining jumboqliligi va uning madaniyatlararo talqinining xilma-xilligi bilan izohlanadi. Genderizmlar jamiyatdagi madaniy qadriyatlar zamiriga shunchalik singib ketgan-ki, diskriminatsiya oddiy hol shaklini olgan, buni madaniyatlararo tarjimada ifodalash esa mushkuldir.

Metod va materiallar. Tarjimonlar genderizmlarni tarjima qilishda asosan ularni tushirib qoldirishga yoki neytralizatsiya qilishga harakat qilishadi. Shu sababli, ushbu qismda mana shu konseptlarning mahalliy va xorijlik tarjimonlar tomonidan qay shaklda ifodalanganligini ko'rib chiqamiz. Bunda genderizmlarning tarjimada qanday o'girilganligi, diskriminativ, patriarxik konseptlar hamda stereotiplarni tarjimada ifodalashda qanday lingvistik birliklardan foydalanilganligi, tarjimonlarning milliy-madaniy kompetensiyaga egalik darajasining tarjimaga ta'siriga alohida e'tibor qaratamiz. Ushbu vazifani amalga oshirishda qiyosiy tahlil, lingvokulturologik tahlil usullariga tayanamiz.

Xususan, XIX asr adabiyoti namunalaridan biri Cho'ponning "Kecha va Kunduz" asarida har ikkala asosiy erkak qahramonlar Akbarali mingboshi va Razzoq so'fining nutqida ayollarga nisbatan buyumdek munosabatda bo'lish, ya'ni uni olish, berish, yangilash, tanlash, tashlab yuborish, sotish, undan kechish, qutulish mumkinligi bir necha bor ta'kidlanadi. Ba'zida esa, ayollarga ularning yuk ekanligi, erkak uchun muammo ekanligi aytiladi. Bu kabi konnotatsiyalarni tarjimada qay tarzda ifodalanganligini tahlilga tortamiz. Tahlilga tortilayotgan asar ikkim marta ingliz tiliga tarjima qilingan bo'lib, birinchi tarjima 2014-yilda mahalliy tarjimonlar O.M. Mo'minov va A.A. Hamidovlar tomonidan, ikkinchi tarjima esa, xorijlik tarjimon Ch. Fort tomonidan 2019-yil amalga oshirilgan.

arxaizmida ko'p xotinlilik, ya'ni xotin ustiga xotin olish ma'nosi ham aks etganligini tasdiqlaydi.

XIX asrdagi ijtimoiy jarayonlarda qiz bolaning turmushga chiqish haqidagi qaror qabul qilishda erkinligi cheklanganligi tufayli, uning otasi yoki oilasidagi dominant erkak bu muhim vazifani amalga oshirgan. Qiz olish odati tarixiy ildizlarga ega bo'lib, o'zbek madaniyatida qizga turmushga chiqishni xohlagan insonning ota-onasi qizning ota-

onasidan ruxsat olishi lozim. Hozirgi kunda qizning roziligini so'rash odati saqlanib qolgan bo'lsa-da, tarixda qizning qanday fikrda ekanligi aksariyat hollarda inobatga olinmagan. YA'ni, qiz bolaning turmush qurishni xohlash-xohlamasligi ahamiyat kasb etmagan. "Evlanmoq" arxaizmi ham ana shu jarayonlarning asl mohiyatiga ishora qiladi. Mazkur genderizmni tarjimada ifodalashda xorij va mahalliy tarjimonlarning turlicha yondashganliklarini ko'rish mumkin.

O.M.Muminov va A.A.Xamidovlar ushbu arxaizm qatnashgan gapni umuman tushirib qoldirishgan, uning o'rniga esa, asliyatda mavjud bo'lmagan, "mingboshining xotinlari har hafta yangi ko'ylak olishi" haqidagi ma'lumotni qo'shib qo'pol xatoga yo'l qo'yishgan. Tarjimada bu kabi holatlarning uchrashi, o'quvchida asar, unda tasvirlanayotgan hodisa, holat va vaziyat haqida miskonsepsiyani yuzaga keltiradi. Buning oldini olish esa, tarjima jarayonida arxaizmlarning milliy-madaniy jihatlari, ularning zamirida yotgan xalqning o'tmishi, urf - odatlari haqidagi madaniy axborotni o'quvchiga muqobil yetkazishga e'tibor qaratishni talab qiladi.

Ma'lumki, ingliz tilida "to marry" yoki "to get married" birliklari gender jihatdan farqlanmaydi, ya'ni ham erkak, ham ayol kishiga nisbatan ishlatilishi kuzatiladi. K.Fort esa, gender differentsiatsiyasini ifodalash maqsadida, "evlanmoq" arxaizmini "acquiring new wives" birikmasi orqali ifodalab, "xotin egallash", "qo'lga kiritish" ma'nosini berishga harakat qilgan. Bu orqali, o'sha davr ijtimoiy -madaniy muhitida yaqqol aks etgan erkaklarning ayollarga xo'jayin, sohib

ekanligi, ayollarga kimdir tomonidan "egalik qilinishi", bir so'z bilan aytganda gender notengligi bilan bog'liq vaziyatni o'quvchi tasavvurida shakllantirish maqsad qilingan. Ingliz tiliga oid manbalarni ko'rib chiqish jarayonida ayon bo'ldiki [12], "to acquire a wife" frazasi asosan tarixiy kontekstlarda ishlatiladi, hamda, ayollarga mulk sifatida qaralganligi, hamda erkaklar, asosan, qizning otasi bilan kelishuv asosida uylanganligi ma'nosini bildirgan. YA'ni K.Fort bir tomondan arxaizm tarjimasida arxaik vositalardan foydalangan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'sha davrdagi ijtimoiy munosabatlarda erkaklarning o'zni dominant bo'lganligiga urg'u bergan.

Xulosa. Umumlashtiradigan bo'lsak, gender xususiyatga ega qadriyatlarini tarjimada ifodalashda muallifning maqsadini, ichki intensiyasini nazarda tutish kerak. Asarda Cho'lpon tasvirlagan muhitda ayollarning har tomonlama, ham jamiyatdagi, ham oiladagi o'zni, ularga nisbatan diskriminatsion munosabatda bo'linishi, tinimsiz bosim o'tkazilishi, ularning fikri inobatga olinmasligi ochib berilgan. Shunday ekan, bunday asarni yozishdan muallifning maqsadi ayollarni uyg'otish, ularning o'z haq huquqlari uchun kurashga rag'batlantirish bo'lganligi shubhasiz. Yozuvchining bu maqsadi, evlanmoq arxaizmi bilan bog'liq bir qator birikmalarda, jumladan xotin olmoq, xotin yangilamoq, qiz sotmoq kabilarda o'z aksini topgan. Muallifning ushbu ichki motivini yuzaga chiqarishda ushbu elementlarni tarjimada saqlash samarali ekanligi o'z isbotini topadi.

ADABIYOTLAR

1. Simon, Sherry. Gender in Translation – Cultural Identity and the Politics of Transmission. 1996. New York: Routledge.
2. Baran A. Gender in Estonian older phraseology //Linguo-cultural research on phraseology. – 2015. – T. 3. – C. 315-336.
3. Bychkova T., Safin I., Kolosova E. Representation of gender concepts in the Russian and polish languages.
4. Tameryan T. Y., Zyubina I. A., Dzhigkaeva A. V. Thematic representation and linguo-cognitive structure of the businesswoman image from the perspective of gender-professional axiology //RUDN Journal of Language Studies, Semiotics and Semantics. – 2021. – T. 12. – №. 4. – C. 1216-1235.
5. Jahongirovna S. Appearance of gender indicators in the interview text //Anglisticum. Journal of the Association-Institute for English Language and American Studies. – 2023. – T. 12. – №. 11. – C. 52-60.
6. Yusupova Z. Y. Linguo-culturological paradigm as the theoretical and methodological basis of structural-semantic language studies //Вестник магистратуры. – 2022. – №. 5-2 (128). – C. 44-45.
7. Nadia G.M. Translating genderism, a way of manipulating gender norms. International Journal of Women's Research Vol. 3, No. 2, Autumn & Winter 2014-15, pp 217- 240.
8. Esmaeili, Saeed, and Ali Arabmofrad. "A critical discourse analysis of family and friends textbooks: Representation of genderism." International Journal of Applied Linguistics and English Literature 4.4 (2015): 55-61.
9. Bertens, H. (2001). Literary theory: The basics. New York: Routledge
10. Gasanova, M.A. & Mazanaev, Sh. (2014). Religious and magical codes culture Tabasarskiy paremiological worldview. Herald of Adygeya State University. Philology and art history, 3(145), 46-53.
11. Korolenko, R. (2005). Women concept in contemporary Anglo-American culture. Actual problems of linguistics and linguistics: article collection. Irkutsk: IVVAIU, 103-111.
12. <https://www.newyorker.com/magazine/2010/09/20/the-showman>;
<https://www.ncbi.nlm.nih.gov/pmc/articles/PMC3610195/>; <https://www.economist.com/books-and-arts/2005/04/28/the-dignified-founder>; <https://www.newyorker.com/magazine/1971/03/06/the-cabalist-of-east-broadway>